

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY SHART-SHAROITLARI**Azimova Gulmira Xayrullayevna**Navoiy davlat universiteti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish ko'nikmalarini berish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish malakalarini rivojlantirish va buzilgan tabiat obg'ektlarini qayta tiklash tushunchalarini to'g'ri shakllantirish, bolaning kelgusida ijtimoiy hayotda jamiyatimiz tomonidan talab qilinadigan har tomonlama ekologik madaniyati yuksak insonni tarbiyalashda ko'mak berish farazi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. Ekologik madaniyat, paradigma, innovatsion va kreativ yondashuvlar, tirik burchak, zamonaviy mexanizmlar, qadriyatlar koordinatsiya, ekologik muammo.

Аннотация. В статье выдвигается гипотеза о повышении экологической культуры дошкольников, воспитании навыков бережного отношения к окружающей среде, развитии навыков рационального использования природных ресурсов и правильного формирования представлений о восстановлении разрушенных объектов природы, содействии воспитанию у ребенка всесторонней экологической культуры человека, востребованной нашим обществом в дальнейшей общественной жизни.

Ключевые слова. Экологическая культура, парадигма, инновационные и креативные подходы, живой уголок, современные механизмы, ценности координации, экологическая проблема.

Annotation. The article put forward the hypothesis of improving the ecological culture of preschool children, giving environmental protection skills, developing the skills of rational use of Natural Resources and correctly forming the concepts of restoration of disturbed nature objects, providing support in the upbringing of a high person in the child's comprehensive ecological culture, which is required by our society in the future social life.

Keywords. Ecological culture, paradigm, innovative and creative approaches, living corner, modern mechanisms, values coordination, environmental problem.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tushunchalar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, ilmiy-metodik ta'minot va axborot-ta'lim muhiti, ekologik ta'lim muammolari yechimini topishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu

masalalarni hal etishda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tushuncha va madaniyatini takomillashtirish, ekologiyaga bo‘lgan munosabatni to‘g‘ri tarbiyalash umumbashariyat kelajagi uchun eng dolzarb muammo sifatida ehtirol etilmoqda. Ekologik munosabatlarning yangi paradigmalariga o‘tish nafaqat bolalarning ekologik tushunchalarini shakllantirishga oid innovatsion va kreativ yondashuvlarni, balki mazkur jarayonni ta‘minlashga imkon beruvchi metodologik va texnologik asoslarni ham takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga ta‘sir qiluvchi muhim tarbiyaviy jihat - bu maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida qulay ekologik muhitni yaratishdir. Bu uzluksiz jarayon bo‘lib, maxsus ekologik makonni tashkil etish va undagi hayvonot dunyosi uchun zarur shart-sharoitlarni saqlashga qaratilgan muntazam harakatlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ish shaklining eng keng tarqalgan navlari – “tirik burchak” yaratish, gullarni yetishtirish, gulzorning dizayni bo‘lishi lozim. Bolalar nafaqat hayvonlar va o‘simliklarni kuzatish, balki ularga g‘amxo‘rlik qilishda faol ishtirok etsalar, tarbiyaviy samaraga erishiladi. Zamonaviy jamiyatda ekologik muammolarning dolzarbligi ekologik ta‘lim masalalarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining muhim vazifalaridan biri, nafaqat bolalarga tabiatning go‘zalligini ochib berish, balki ularni o‘z-o‘zidan payqash va qadrlashga o‘rgatish muhim. Bolalar maktabda ekologiya fani bilan tanishadilar, lekin ekologik tarbiya maktabgacha yoshdan boshlanishi kerak. Ba‘zilar uchun bu erta ko‘rinishi mumkin. Biroq, bolalar psixologlari 5-6 yoshni eng sezgir, o‘rganishga ochiq deb ta‘kidlashadi. Bu davrda bolaning o‘ziga, uning atrofidagi dunyoga munosabati shakllanadi, qadriyatlar koordinatsiyasi quriladi.

Har yili dunyoda ekologik vaziyat yomonlashmoqda, zamonaviy ota-onalar va pedagoglarning maqsadi – bolalarni tabiatga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘lishlari, uni himoya qilishlari, uni asrash usullarini takomillashtirish, ekologik bilimli insonlarni tarbiyalash hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida beriladigan ekologik tarbiya jarayonlarini o‘rganib chiqish davomida, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ekologik ta‘lim-tarbiya, tabiat markazining bir qismi sifatida o‘tilgan va unga alohida urg‘u berilmagan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini oshirish maqsadida ekologiya mashg‘ulotlarni boshqa faoliyat jarayonlariga qo‘shib olib borilmagan tarzda tashkillashtirish orqali ekologik tarbiya samaradorligi yanada oshishiga hamda mavjud ekologik muammolarning globallashtirishini, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik muammolarining oldini olishga ulkan xizmat ko‘rsatadi.

Ushbu masalalarni hal etishda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tushuncha va madaniyatini takomillashtirish, ekologiyaga bo‘lgan munosabatni to‘g‘ri tarbiyalash umumbashariyat kelajagi uchun eng dolzarb muammo sifatida ehtirol etilmoqda. Ekologik munosabatlarning yangi paradigmalariga o‘tish nafaqat

bolalarning ekologik tushunchalarini shakllantirishga oid innovatsion va kreativ yondashuvlarni, balki mazkur jarayonni ta'minlashga imkon beruvchi metodologik va texnologik asoslarni ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu masalalarni hal etishda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tushuncha va madaniyatini takomillashtirish, ekologiyaga bo'lgan munosabatni to'g'ri tarbiyalash umumbashariyat kelajagi uchun eng dolzarb muammo sifatida etirof etilmoqda. Ekologik munosabatlarning yangi paradigmalariga o'tish nafaqat bolalarning ekologik tushunchalarini shakllantirishga oid innovatsion va kreativ yondashuvlarni, balki mazkur jarayonni ta'minlashga imkon beruvchi metodologik va texnologik asoslarni ham takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Respublikamiz miqiyosida ko'rilayotgan chora tadbirlar va atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilayotgan har bir faoliyatning zahirida kelajak avlodga atrof muhitni e'zozlashni o'rgatish, tabiiy resurslarni talofatlarsiz o'zimizdan keyin qoldirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ekologiyani ko'p tizimli soha sifatida baholash, ekologik madaniyatning axloqiy mohiyati va zamonaviy mazmunini to'g'ri anglagan holda maktabgacha ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish ekologik madaniyatni rivojlantirish samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik madaniyatni zamonaviy mexanizmlarini yaratishda zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar: ekologik xonalar, ekologik qo'llanma va adabiyotlar, chuqur bilimlarga ega bo'lgan mutaxassis, ekologik kutubxonalar va boshq.larni tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki biz ekologik mexanizmlarni yaratish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarsiz har tomonlama rivojlangan ekologik madaniyatli inson tarbiyalay olmaymiz. Ekologik madaniyatning zamonaviy mexanizmlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu zarur bo'lgan shart-sharoitlar hisoblanadi.

Ekologik madaniyatning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish, u orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatlarini rivojlantirish, ekologik madaniyatli inson qilib rivojlanishi o'zbek xalqi va butun O'zbekistondagi ekologik global muammolarni oldini olish va mavjud ekologik siyosatni zararli oqibatlarini kamaytirishga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida bolaning yosh va temperament xususiyatlarini inobatga olish va tadbirlarni, faoliyat jarayonlarini shu asosda tashkil etish lozim. Bunda tarbiyachi o'z ishini to'g'ri tashkil eta olish qobiliyatlarini hamda ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini tashkil eta olish layoqatlarini ko'rsata olishi va olib borishi juda muhim sanaladi. Bu esa tarbiyachining kasbiy mahoratiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi”dagi 754-XI-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 06-maydagi “Suv va suvdan to‘g‘ri foydalanish to‘g‘risida”gi 837-XII sonli Qonun.
3. Karamatova.D.S, Tolliyeva.G.R., Qilichova.M.J./O‘quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida 2022, 119-b.
4. “Yer sayyorasi umumiy uyimiz” pastrial dastur. T.: 2020, 34-bet.

